

# Veterinariya Meditsinasiga Doir Terminlar Hosil Bo‘Lishida Kompozitsion Usul O‘Rni

*Sadinov Fazliddin Pardayevich*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada chorvachilikning muhim tarmog‘i bo‘lgan veterinariya meditsinasiga doir terminlarning hosil bo‘lish yo‘llari xususida fikr yuritilgan. Soha terminlarining yuzaga kelishida affiksatsiya va kompozitsion usullar xizmati ko‘rsatib berilgan. Veterinariya terminlarining juft, qo‘shma hamda birikmalar orqali yasalishi alohida faktik materiallar bilan ko‘rsatib berilgan. Xususan, ularning tarkibini hosil qilishda so‘z turkumlari ishtiroki ham tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z yasalishi, so‘z, termin, tushuncha, veterinariya, veterinariya meditsinasi, affiksatsiya, sodda tub, sodda yasama, juft, kompozitsiya, birikma, qo‘shma, tarkib, hosil bo‘lishi, yasama termin, terminosistema, uch tarkibli termin, ikki tarkibli termin, to‘rt tarkibli termin, izofali birikma.

Ma‘lumki, har qanday tushuncha til birliklarida, ya‘ni so‘z va terminlarda o‘z ifodasini topadi. Ular esa muayyan qonun-qoidalar asosida yuzaga keltiriladi va til egalari tomonidan muomalaga kiritiladi. Bu jarayon bevosita tilning ichki va tashqi omillariga bog‘liqdir, chunki ular asosida til hamisha o‘zining lug‘at fondini yangi leksemalar bilan to‘ldirib turadi. Bu jarayon so‘z yasalish va so‘z o‘zlashtirish vositasida amalga oshiriladi. Negaki “so‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida yangi so‘z hosil qilishning qonun-qoidalarini, modellarini, vositalarini, shu bilan bog‘liq holda, so‘zlarning strukturasi tekshiradi”[1]. Chunonchi, so‘z yasalishi ham, masalan, morfologiya, sintaksis kabi o‘z sistemasiga ega [2]. Shu sababli, so‘z yasalishi tilshunoslikning alohida bir bo‘limi sifatida o‘rganilmoqda.

Terminlar ham so‘zlar kabi ichki va tashqi imkoniyatlar asosida hosil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun terminlarni sodda, qo‘shma, juft kabi turlarga bo‘lishdan asosiy maqsad ularni bir-biridan farqlash, ajratishdir. Bu terminlar tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qilsa-da, lekin terminlik xususiyatini yo‘qotmaydi. Sodda terminlar tarkibida so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi affikslarning bor-yo‘qligiga qaramay, yolg‘iz bir o‘zakdan, yoki negizdangina hosil bo‘ladi, birgina lug‘aviy ma‘noni ifodalagan qism sodda termin hisoblanadi. Masalan, veterinariya meditsinasida faol qo‘llanuvchi burga, o‘choq, agar, zardob, krizis, oila kabi terminlarni bunga misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bir o‘zakdan hosil bo‘lgan terminlar tub terminlar hisoblanadi, ular faqatgina lug‘aviy va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida ham hosil bo‘lishi mumkin. Masalan, aviditet, agamma, agoniya, anabioz, antidote, batilla, bezlar, biopsiya, bubon, vibrios, viruriya, gidroliz, dezobarer, destruksiya, dupleks, ikosayedr, idiosoma, izogametalar, ingibirotlar, iridoviruslar, kapsid, yo‘tal, kaverna, karbunkul, katabolizm, klon, lateks, leykoz, lizis, mallein, migratsiya, mog‘orlar, mutatsiya, nukleoid, parez, passaj, piyemiya, popullyatsiya, properdin, retinok, rinit, rozeolalar, sanatsiya, simbioz, sporalar, stress, suspenziya, tenezimlar, tarsduksiya, tremor, tulyarin, uremiya, fenotip, eliza kabilarni tub terminlar sifatida qarash mumkin.

Sodda yasama terminlar tub terminlarga biror yasovchi affiksning qo‘shilishi bilan hosil bo‘lib yangi ma‘no ifodalovchi terminlardir. Birgina -lik va -lash qo‘shimchalari yordamida quyidagi veterinariya terminlari hosil qilingan: avidlik, antigenlik, bakteriotsiogenlik, bepushtlik, virulentlik, immunlash, kasallik, kaprinlashganlik, kamqonlik, klonlash, konservalash, kruponlash, kulturalash, letallik, leofillash, maleinlash, insidentlik, immunogenlik, darsobvallah, oriqlash, parazitlik, patagenlik,

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillari instituti assistent-o‘qituvchisi



polimorflik, reaktogenlik, regitlik, sterillash, fumigatsiyalash, chidamlilik, enzotiklik, tindalash, dispanserlash kabilar.

Demak, yasama terminlar tub terminlardan soʻz yasovchi qoʻshimchani olishi bilan farqlanadi, bu esa soʻzning maʼnosini tubdan oʻzgarishiga asos boʻlib xizmat qiladi. Xalq tilida ham ana shunday holat kuzatiladi, chunki har qanday soʻz yasovchi qoʻshimcha soʻzga qoʻshilganida yangi maʼno ifodalaydi. Terminlarga ham soʻz yasovchi affiksni qoʻshganimizda ulardagi maʼnosiga oʻzgarish kirishini kuzatishimiz mumkin. Shu sababli har qanday affiks yasama terminlarni hosil qilish xususiyatiga ega emas.

Ikki va undan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlarning qoʻshilishi bilan ham leksemalar hosil qilish mumkin [3.;4.;5.;6.; 7]. Oʻzbek tilshunosligida bunday usul bilan yuzaga kelgan til birligi *qoʻshma soʻz* termini vositasida ifodalanmoqda. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda, shu jumladan, terminologik sistemalarni tadqiq etishga bagʻishlangan ishlarda *qoʻshma termin* shakli ham qoʻllanmoqda.

Qoʻshma terminlar masalasi A. Madvaliyev, T. Tursunova, M. Abdiyev tadqiqotlarida qoʻllanilgan [8.; 9.;10]. Bunday terminlar birdan ortiq oʻzak birikuvidan iborat qoʻshma soʻzlar hisoblanadi. Umuman olganda, qoʻshma terminlar ikki va undan ortiq sodda terminlarning birikuvidan tuzilgan terminlar hisoblanadi. Qoʻshma terminlar ham qoʻshma soʻzlardek oʻz qatlam soʻzlaridan, boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manbalarning oʻzaro qoʻshiluv natijasida yasaladi. Oʻzbek tili materiallari asosida yuzaga kelgan qoʻshma terminlar asosan umumisteʼmoldagi tayyor qoʻshma soʻzlarning ilmiy termin yoki nomenklatura sifatida terminologik tizimlarga qabul qilinishidan hosil boʻladi. Ularning bunday shaklda qoʻllanuvchi leksik birliklari koʻproq xalq tili bilan boʻgʻliq holda rivojlangan terminologik sistemalarda tez-tez uchraydi. Masalan, oʻzbek tiliga tegishli materiallardan tuzilgan qoʻshma terminlar ayni rus va Yevropa tillaridagi terminlarni toʻliq kalkalash jarayoni bilan ham yuzaga kelishi mumkin. Oʻzbek millati qadimdan boshqa xalqlar bilan hamkorlik qilishni yaxshi koʻradigan, qoʻshnichilikka eʼtibor berib yashab kelgan xalq boʻlganligi bois tilimizdagi baʼzi soʻz va terminlar arabcha, forsha yoki ruscha-baynalmilal tillarga xosdir, hatto har ikkala qismi ham muayyan til materialidan olingan qoʻshma soʻz va terminlarni ham uchratish mumkin.

Demak, tilimizda qoʻshma terminlarning komponentlari genetik materialiga koʻra turlichadir, shu boisdan qoʻshma terminlarni tashkil etgan komponentlarning kelib chiqish holatiga koʻra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Bir tildagi qatlamga mansub soʻz birliklaridan hosil boʻlgan qoʻshma terminlar: kamqonlik, tugmabosh, ayiqtovon, qorason, tutqanoq, oshqozon kabi.
2. Turli tillarga mansub soʻz birliklaridan hosil etilgan qoʻshma terminlar. Qoʻshma terminlar oʻzbek tilida ot+ot, sifat+ot, son+ot, ot +feʼl shaklidagi qolip orqali hosil qilinishi mumkin. Masalan, ot+ot shaklidagi: mikrobiologiya, mikroorganizmlar, mikrosporiya, neyrominidaza, neyrotrop, koronavirus, immunodifuziya, immunodiagnostika, immunoprofilaktika, yoʻriqnoma, lissoviruslar, ultrafiltrlash, fagoterapiya, fagosiyoz, flaviviruslar, fotobakteriyalar, neyrogen; sifat+ot shakliga qorason, oqqon kabi soʻzlarda sifatning otga qoʻshilishi natijasida yangi bir maʼnoni ifodalovchi soʻz hosil qilinadi. Bu kabi dalillarni yanada koʻplab keltirishimiz mumkin. Lekin veterinariya terminlarida ot+feʼl qolipidagi qoʻshma terminlarni juda ham kam uchraydi.

*Juft terminlar.* Juft terminlar ikki soʻzning juftlanishi asosida hosil boʻladi. Biz tadqiqot materiallarini tahlil qilish davomida juft terminlarga kam duch keldik. Agamma-globulinemiya, alfa-virus, andrede-indikator, veterinariya-sanitariya, diffenbax-grefe, differensial-diagnostik, smedi-viruslar kabilarni juft terminlarga xos fakt material sifatida keltirishimiz mumkin.

Odatda, soʻz birikmalari grammatikaning sintaksis qismida oʻrganiladi. Chunki “Soʻz birikmasi gap sostavidagi grammatik jihatdan bogʻlangan soʻzlar gruppasini oʻrganadi. Soʻz birikmasi mazmun jihatdan birlikni tashkil qilgan va til qoidalariga koʻra ajratilgan soʻzlar gruppasidir”[11]. Oʻzbek tilida birikmalarning yana bir turi mavjud boʻlib, u nominativlik, yaʼni voqelikni nomlash vazifasini bajarib keladi. Ayni shunday birikmalar sintaksisning emas, balki leksikologiyaning, terminologiyaning



o'rganish obyektidir. Bunday birikmalar R. Doniyorov va M. Abdiyev ishlarida [12.; 13] qo'llanganligi va ular *birikma terminlar* deb atalganligini ta'kidlab o'tamiz.

Tilshunos J.Muxtorov shunday deb yozgan: "Qo'shma otlardan tashqari, turg'un birikma tarzidagi otlar ham bo'ladi. Bunday otlar ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topadi, bu so'zlar orasida aniqlovchilik munosabati saqlangan bo'ladi (ta'kid bizniki–F.S.)" [14]. Aniqroq qilib aytganda, bu xildagi birikma terminlar grammatik nuqtayi nazardan "aniqlovchi+aniqlanmish" tipida–atributiv munosabat asosida yasaladi.

Barcha terminosistemalarda kuzatilgani kabi veterinariya meditsinasi terminologiyasida ham birikma terminlar miqdori ustuvorlik kasb etadi. Birikma terminlar birdan ortiq leksik birlikdan tashkil topadi va birikma holatida bo'ladi. Birikma terminlar asosan terminologik xarakterda bo'ladi va ular birikma holida bir tushunchani ifodalaydi. Unda hokim qism tushuncha mohiyatini bildirib, tobe bo'lak uning nimaga xosligini, tegishli ekanligini belgilaydi yoki ma'noni mo'ljallangan tushuncha hajmigacha toraytirib, ifoda etish uchun xizmat qiladi. Bunda terminlarining mohiyati hokim termindan anglashilib turadi. Aniqlovchisi esa uning nimaga taalluqliligini ko'rsatadi. Masalan, veterinariya terminologiyasida sifat+ot qolipiga zardobli mastit, zamburug'li infeksiya, irsiy immunitet, immunodefitsit holat, infeksiyon ekzantema, belgisiz infeksiya kabi terminlarda sifatning otga qo'shilishi natijasida yangi bir ma'noni ifodalovchi terminlar hosil qilingan. Bu birikmalar termin ma'nosiga aniqlik kiritish uchun aniqlovchi orqali berilgan, aniqlovchi aniqlanmishidan anglashilgan holat esa aniq belgilanishida ahamiyat kasb etadi. Birikma terminlar ma'nosi xoh u terminologik xarakterida bo'lsin yoki terminologik xarakterda bo'lmasa ham, atovchi xususiyatlarni o'zida saqlaydi. Bu uning atovchi ma'nosi ham hokim bo'lakdan, ham tobe bo'lakdan tarkib topganligi bilan izohlanadi. Birikma terminlar asosan ot turkumiga xos lug'aviy birliklardan hosil bo'lganligi bilan diqqatga sazovordir. Birikma terminlar hosil bo'lish qolipi ma'lum bir so'z turkumi bilan chegaralangan emas. Ular xuddi qo'shma terminlardagi kabi sifat+ot, ot+ot, son+ot, ot+fe'l qolipida hosil bo'lishi mumkin. Masalan, antigenlar guruhi, antenatal gipotrofiya, bezoar kasalligi, gamazoid kanasi, ko'z atrofiyasi, ko'z soqqasi, ko'z gavhari kabi; ot+fe'l; binokulyar ko'rish, finotipik qo'shilish, fiziologik yetilish. Ot+fe'l qolipidagi birikma terminlarni tadqiqot obyektimizda ko'plab uchratishimiz mumkin. Bular asosan bitishuv yo'li orqali birikkan birikmalar hisoblanadi. Ikki tarkibli termin birikmalar – sodda so'z birikmasi shaklida bo'lib, shaklan hokim-tobelik munosabati sezilib turadi, ularni ikki tarkibli termin birikmalarni shaklida uchratishimiz mumkin: adenosatellit viruslar, ammiyon suyuqligi, anifilaktik shok, antigen shifti, antitoksin birligi, askoli reaksiyasi, atidofilli sut, batsilla tashuvshi, balgar tayoqchasi, bome areometri, veterinariya cheklashlari, verionlar lipidlari, virulentlik birligi, viruslar simmetriyasi, gemorragik diatez, gen injeneriyasi, genetik kod, gorizont o'tish, dezenfeksiya vositalari, defibrinlangan qon, diaqnozlar kompleksi, dizyunktiv ko'payish, zardob titri, industrial texnologiya, intaklik holati, interkurent kasalligi, infeksiyon ekzantema, infeksiyalangan hayvon, karantinli kasalliklar, kasallik o'chog'i, kimyoviy preparatlar, kiritma tanachalari, komensal mikroorganizmlar, kumbs reaksiyasi, lapinlashgan shtammlar, leteks test, lipoproteid qobiq, ko'zning kameralari, ko'rish nervi, mikrobiologik reaktorlar, monotrop potogenlar, mutualist yashash, nosog'lom hudud, obligat parazitlar, organizm reaktivligi, fotodinamik terapiya, faol sayr, pantrop potogenlar, potogen mikroorganizmlar, permissiv harorat, plazmatik hujayralar, politip qo'shilish, prodromal davr, respirator viruslar, serologik maxsuslik, simutan emlashlar, parazitologik vaziyatlar, sintetik muhitlar, tabiiy rezistentlik, temir bakteriyalari, terminal holat, tonik tortishish, transport kasalligi, to'yinmagan kislotalar, ubikvitar turlar, utillash asbobi, fenotipik qo'shilish, xronik kasalliklar, seyler muhiti, sitoplozmatik membrana, sitotsit viruslar, chapek muhitlari, ezilgan tomchi, eklips davr, elektiv muhit, epizotologik bashorat, etiopatogenetik ta'sir, efemer kasalliklar, yuqumlilik indeksi, yaqqol infeksiya, o'choq indeksi, qonni stabillash, qo'zg'atuvchilar inokulyatsiyasi, hujayra kulturasi, hujayra otganoidlari, himoyalovchi emlashlar, adenosatellit viruslar, avleolyar periodontit, bekkari chuquri kabilar.

*Uch tarkibli birikma terminlar* – bunday murakkab terminlar uch mustaqil ma'noli lug'aviy birlikdan iborat bo'ladi, ya'ni uch tarkibli so'z birikmasi zanjiri termin sifatida ma'no ifodalab, bir tushunchani anglatishga xizmat qiladi: Shuningdek, veterinariya terminlarida uch tarkibli birikmalarining keltirilish holati quyidagi dalillarda o'z aksini topadi: oq mushak kasalligi, bachadondan qon ketishi, yuqumli



kasalliklarning tarqalishi, epizootiyaga qarshi tadbirlar, epizotik holat darajasi, emlashdan soʻnggi reaksiya, endokrin xom ashyosi, cheklov qoʻyilgan kasalliklar, flyuressensiyalovchi antitelolar usuli, transmissiv fakultativ kasalliklar, transmissiv obligat kasalliklar, teskari kranskriptaza fermenti, solk rangli sinovi, sirti fail modda, sifat nazorat xizmati, reaksiya titrlarining oshishi, patogen fakultativ mikroorganizmlar, oqar suvni tozalash, oqar suvni zararlantirish, normativ texnik hujjatlar, mollar qonini olish, mikroblarning organizmdan chiqishi, kasallikni qoʻzgʻatuvchi rezervuarlar, infeksiya qoʻzgʻatuvchilarini tashuvchanlik, infeksiyon kasallik davrlar, diploid hujayralar kulturasi, diagnostik immun zardoblar, virusning membrana oqsili, antitelalarning faol markazi, antigenning faol qismi, bosh sinuslarining yalligʻlanishi, buzilgan ozuqalardan zaharlanishlar, virionning kimyoviy birligi, jigar komasi sindromi, immunologik elektron mikroskopiya kabilar.

*Toʻrt tarkibli birikma terminlar.* Xuddi shunday toʻrt tarkibli termin birikmalar esa veterinariya terminlarining yanada boyishi uchun asos boʻlib xizmat qilmoqda. Aynan shunday terminlar veterinariya asoslari va mikrobiologiyasi fanlarida koʻp miqdorda qayd etilgan boʻlib, veterinariya fanini oʻrganayotgan talaba uchun sohaning ichki imkoniyatlarini, kasallik turlarining nomlarini oʻrganishga asos boʻlib xizmat qiladi. Kuzatish davomida sohaga oid boʻlgan birikmalar holatiga oʻxshash birikmalar borligining guvohi boʻldik. Veterinariya terminologiyasiga xos bolgan toʻrt tarkibli termin birikmalarga dalil sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: agglyutinatsiyalovchi immunin qon zardobi, yuqumli kasalliklarning bexosdan paydo boʻlishi, yuqumli kasallikka qarshi kurash, oʻta xavfli yuqumli kasalliklar, epizotik jarayonning harakatlantiruvchi kuchlari, organizmdan kasallik qoʻzgʻatuvchisining chiqarilishi, kasallikda gumon qilingan hayvonlar, kasallik qoʻzgʻatuvchisining uzatilish omillari, boʻgʻoz hayvonlarda shishlar paydo boʻlishi, boʻgʻoz hayvonlarning yotib qolishi, boʻgʻoz biya qon zardobi, vakuola hosil qiluvchi virus, veterinariya-sanitariya chiqindisi zavodi, veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasi, ketozga qarshi ketost aralashmasi kabilar.

Soha materiallari boʻyicha olib borilgan kuzatish va tahlillardan maʼlum boʻladiki, besh va undan ortiq tarkibli birikma terminlar kam uchraydi hamda sodda terminlar va birikma terminlar yetakchi oʻrinda boʻlgani holda, qoʻshma va juft terminlar miqdori juda kam miqdorni tashkil etadi. Mavjud veterinar terminlar tizimidagi murakkab terminlarning aksariyati umumnutqda soʻz birikmasi sifatida ham ishlatiladi va ular tarkibidagi har bir lugʻaviy maʼnoli birlik oʻz maʼno semantikligini saqlab qoladi.

Ammo keyingi paytlarda milliy oʻzbek terminologiyasida soʻz birikmasi shaklidagi terminlar hosil qilish faollashib bormoqda. Veterinariyaga aloqador tushunchalarni anglatishda esa “*ot+ot*”, “*sifat+ot*” qolipida yasalgan birikmalar ancha mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Kundalik amaliyotda *ot+ot* tipidagi birikmalarning turkiycha izofalaridan keng foydalanib kelinayotir. Shuningdek, tadqiqot obyektimizda fors-tojikcha izofali birikmalar ham tez-tez ishlatilib kelinmoqda. Soha terminologik sistemasida “*sifat+ot*” qolipli birikma terminlar alohida oʻrinni egallaydi.

Tadqiqot obyektida ularning “*asliy sifat+ot*” qolipida yasalgan birikma terminlari unumdorligi bilan ajralib turadi. Ular jumlasiga aniqlovchi komponenti *-li*, *-ma*, *-lik*, *-k* (*-q*, *-gʻ*), *-v* (*-ov*, *-uv*), *-gi* (*-ki*, *-gʻi*, *-qi*) kabi affikslar bilan yasalgan birikma terminlar kiradi. Shu bilan birga, veterinariya tushunchalarini hosil qilishda “*son+ot*” qolipli birikmalar ham qoʻllanishdadir.

Xulosa qilib aytganda, veterinariya medistinasiga doir terminlar hosil boʻlishida affiksial usul bilan bir qatorda kompozitsiya usuli bilan yasalgan “*ot + ot*”, “*son + ot*” qolipli qoʻshma terminlardan ham keng foydalanilayotir. Ayniqsa, “*ot + ot*” (“*aniqlovchi + aniqlanmish*, *toʻldiruvchi + toʻldirilmish*”), “*sifat + ot*” (“*asliy sifat + ot*, *nisbiy sifat + ot*”), “*-lik affiksli termin + ot*”, “*-q affiksli termin + ot*”, “*-v affiksli termin + ot*”, “*-ki affiksli termin + ot*”, “*-i affiksli termini + ot*” qolipli birikmalar oʻzining ancha mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Ushbulardan koʻrinadiki, soha terminlarining hosil boʻlishi va qoʻllanish jarayonlarini tahlil qilish tilshunoslik fani oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



**Adabiyotlar**

1. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Тошкент: Фан, 1976.-Б. 7-8.
2. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 12.
3. Мадалиёв Б. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма сўзлар. –Тошкент: Фан, 1966. –Б. 45.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 56.
5. Бафаёв Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: на материалах “Хазойин ул-маоний” А.Навои: АҚД. – Ташкент, 1968. – С. 17.
6. Маматов Н. Собственное сложные слова в узбекском языке: АДД. –Ташкент, 1990. –С. 20.
7. Абдиев М. Касб-корни билдирувчи шахс номларининг ясашиш асослари. –Тошкент: “Tafakkur”, 2015.-Б. 65-74.
8. Мадвалиёв А. Қўшма терминларнинг хусусиятлари ва уларни тартибга солиш масалалари//Ўзбек тили илмий-техник терминологиясини тартибга солиш принциплари. – Тошкент: Фан, 1991. –Б.47-66.
9. Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 1987.-Б. 56-63.
10. Kasb-hunar leksemalarining yasalish masalalari. –Turkiya, Istanbul: KESIT nashriyoti, 2019.В. 49-55.
11. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. –Тошкент: Фан, 1976. –Б. 18.
12. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. –Тошкент: Фан, 1977. –Б. 95-112.
13. Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили. –Тошкент: Халқ мероси, 2004. Б. 45-52.
14. Мухтаров Дж.М. Словообразование в узбекском языке суффиксами таджикского языка//А.Навоий номидаги СамДУ асарлари янги серия №77, филология факультети, ўзбек тилшунослиги кафедраси. – Самарқанд: СамДУ, 1958. –С.14-49.

